



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Yo'lbichboyeva Lolaxon

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Po'latova Mahliyo

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7966371>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-May 2023 yil

Ma'qullandi: 20-May 2023 yil

Nashr qilindi: 24-May 2023 yil

KEY WORDS

gapning grammatik asosi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'laklar, yoyiq gap, yig'iq gap, uyushiq bo'lak, punktuatsiya, bayon, insho, nuqta, so'roq, undov gap, nuqta, so'roq, undov, vergul, tire, ikki nuqta.

ABSTRACT

Boshlang'ich maktabda an'anaviy tarzda o'rganiladigan bo'limlarini anglatadi Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar: amaliy o'rganiladigan; nazariy o'rganiladigan turlarga bo'linadi. Sintaksis bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar:

- 1) amaliy o'rganiladigan;
- 2) nazariy o'rganiladigan turlarga bo'linadi. Sintaksis bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va to'rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda «Bog'lovsiz», «Gap», «Darak gap», «Co'poq gap», «Buyruq gap», «His-hayajon gap», «Sodda gap», «Qo'shma gap», «Gap bo'laklari», «Gapning uyushiq bo'laklari», «Undalma» mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidai turli mashqlar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksik, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gapni ham negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va uning yo'llanish xususiyaglari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi.

So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqari bir necha ma'no ifodalash mumkin).

Metodist olimi T.G.Ramzaeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning

muhim belgilarini o'rgatish).

2. Gap strukturasini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yopiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi.

O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

«Gap» mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi - gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar, Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazish ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda, gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra 1- sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

1- sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

2- sinf gap ustida ishlashning yangi bosqichidir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadi. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi.

Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z) ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni (qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

3- sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

SHunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklar) ga bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklaresa bosh bo'laklarning aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyatini ochish uchun o'quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo'lagiga bog'lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari gapni yoyish (yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'quvchilar Qaldirg'ochlar uchib keldi gapini yozadilar. Fikrni ifodalash uchun gapga qaerga? va qachon? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni qo'yish topshiriladi. O'quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo'lagi (ikkinchi darajali bo'lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarni uning muhim belgilari idrok qilinadi. «So'z birikmasi» atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta'rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uning quyidagi muhimbelgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So'z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog'langan ikki so'z. Masalan, Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar gapida ikki so'z birikmasi bor:

1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

2. So'z birikmasida bir so'z hokim, ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'lgan so'zdir. Masalan, (qanday?) iqtidorli o'quvchilar (qaepra?) to'garakka a'zo bo'ldilar. Ega va kesim so'z birikmasi emas, ular gapning asosini tashkil qiladi.

XULOSA:

Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohadagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. SHunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi.

References:

1.Kalandarovna, Y. L. (2022). Identification And Education Of Gifted Children. Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 42-47.

- 2.Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). Фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда ментал арифметика. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 235-239.
- 3.Kalandarovna, Y. L. (2022). Origin and concept of taboo vocabulary. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 184-190.
- 4.Yulchiboyeva, L. Q. (2022). IRIM-SIRIM BILAN BOG 'LIQ TIL BIRLIKLARINING TAHLILIIY O'RGANILISHI. IJTIMOIIY FANLARDА INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 1

